
Bayrog'im - g'ururim, iftixorim!

Qo'shtepa tumanidagi 11-umumta'lim maktabida tashkil etilgan "Yosh gvardiyachilar" sinifida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilingan kuni munosabati bilan "Bayrog'im- g'ururim, iftixorim" mavzusida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda tuman Milliy gvardiya inspektor-psixologlari tomonidan o'quvchilarga Vatanga muhabbat, sadoqat bilan xizmat qilishlarini, shuningdek, O'zbekiston bayrog'i dunyoning eng yuksak minbarlarida mag'rur xilpirayotganligi Vatan tinchligi, taraqqiyoti uchun daxldorlik hissi bilan yashash lozimligi kabi keng tushunchalar berildi.

O'z navbatida o'quvchilar ham O'zbekistonning davlat ramzlari xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g'urur, faxr va iftixor bag'ishlashini ta'kidlab o'tishdi.















2024-11-18 14:54:31